

DINNING DAVLATDAN AJRATILISHI TAMOYILI

Alimova G'unchaxon Baxadirovna,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dinning davlatdan ajratilishi prinsipining birlamchi va ikkilamchi darajalarining tuzilishi, dinning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatining aktuallasishi, tarixiy jarayonlarda dinning davlatdan ajratilishi tamoyili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: legitimlik, din, siyosiy institutlar, desekulyarizatsiya, mafkuraviy plyuralizm, diniy dogmalar.

THE PRINCIPLE OF SEPARATION OF RELIGION FROM THE STATE

Alimova G'unchaxon Baxadirovna,
independent researcher of Urganch state university

Abstract. This article talks about the structure of the primary and secondary levels of the principle of separation of religion from the state, the actualization of the socio-political importance of religion, the principle of separation of religion from the state in historical processes.

Key words: legitimacy, religion, political institutions, desecularization, ideological pluralism, religious dogmas.

ПРИНЦИП ОТДЕЛЕНИЯ РЕЛИГИИ ОТ ГОСУДАРСТВА

Алимова Гунчахон Бахадировна,
независимый исследователь Урганчского государственного университета

Аннотация. В данной статье говорится о структуре первичного и вторичного уровней принципа отделения религии от государства, актуализации общественно-политического значения религии, принципа отделения религии от государства в исторических процессах.

Ключевые слова: легитимность, религия, политические институты, десекюляризация, идеологический плюрализм, религиозные догмы.

Kirish. Deyarli barcha olimlar dunyoviy davlat tabiati va xarakteriga ko'ra nodiniy ekanligiga qo'shiladilar. Keling, buning ba'zi tarkibiy qismlariga e'tibor qaratamiz. Avvalo, davlatning o'zini tashkil etuvchi elementlar haqida gapirish kerak [1]. Shu ma'noda hokimiyat, huquq va davlat mafkurasining diniy emasligi haqida gapirish o'rinlidir. Tarixan ko'pincha davlat apparatining ana shu tarmoqlari din bilan bog'liq bo'lgan.

Davlat va din o'rtasidagi o'zaro ta'sir turli hil va dinamik jarayondir. Jamiyatning juda murakkab quyi tizimlari bo'lgan siyosat va din turli xil mentallitet, faoliyat, madaniyat, institutsional shakllanishlar va boshqa ijtimoiy ko'rinishlarda munosabatlarga kirishadi. Davlat va din o'rtasidagi aloqa va munosabatlarning tabiati vaqt va makonda ko'plab o'lovchilarda farqlanadi. Bu borada tarix birlashishgacha bo'lgan yaqin hamkorlik hamda dinni jamiyat hayotining turli xil kesishmaydigan yo'llariga ajratilishi kabi ko'plab misollarni ko'rsatadi.

Dunyodagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy vaziyat odatda dinning ijtimoiy-siyosiy makonga faol kirib borishi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda din nafaqat kun tartibidan chiqarilmoqda, balki uning yordami bilan ko'plab ijtimoiy muammolarni, shu jumladan global tahdidlar deb nomlanuvchi muammolarni tushunishga va hal qilishga harakat qilinmoqda. Ba'zida faqat dinda, uning chuqur ildiz otgan postulatlarida, aksiologik nuqtai nazardan ekstremal xulosalar chiqarib, insoniyatda "varvarlik va hattoki vahshiylik"ga tushib qolmasdan, postindustrializmning barcha hujumlaridan omon qolish imkoniyati mavjudligi e'tirof qilib kelinmoqda.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Professor V.A.Kikotning yozishicha, dunyoviylik "davlat tomonidan diniy tashkilotlar xatti-harakatlari, diniy qoidalar va boshqalarning har kim uchun majburiy bo'lgan huquq manbalari sifatida tan olmasligida ifodalanadi" deya ta'kidlaydi. S.V.Fomina o'z qarashlarida dunyoviy davlatda «diniy dogmalar va qonunlar huquq manbalari sifatida tan olinmaydi» [2], deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga "Dunyoviy davlat – mafkuraviy (shu jumladan konfessiyaviy jihatdan) neytral bo'lgan, birorta mafkuraviy tizim yoki dinni o'zining rasmiy mafkurasini sifatida umum qabul qilmaydigan, o'zini hech qanday diniy majburiyatlarga bog'lamaydigan va fuqarolariga erkin mafkuraviy tanlash imkonini beradigan davlatdir" deb fikr bildiradi [3].

I.V.Ponkin har qanday diniy yoki mafkuraviy hukmronlikdan tashqarida bo'lgan davlat va fuqarolarning jamiyatini aks ettiradi deb fikr bildiradi [4].

Taniqli tarixchi va senator A.F. Koni: "... siyosat va e'tiqod uyg'unligi har doim salbiy oqibatlarga olib kelgan. Cherkov siyosatni o'ziga bo'ysundirgan joyda, biz uning nimaga aylanishini bilamiz: u inkvizitsiyaga aylanadi; Siyosat cherkovni bo'ysundiradigan joyda - u yerda cherkov politsiya institutiga aylanadi va e'tiqodni himoya qilish uchun politsiyachi xizmatini bajaradi..." [5], deya talqin qilgan edi.

Yu.A.Nisnevichning so'zlariga ko'ra, rahbarlarning o'z qarashlari va afzalliklarini omma oldida namoyish etishi «himoya funksiyasidan foydalanish va hokimiyatni saqlab qolish uchun avtoritar tendensiyadan foydalanish uchun mo'ljallangan populistik siyosiy qurilma» bo'lishi mumkin" degan xulosaga keladi [6].

Diniy tashkilotlar va diniy yetakchilarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan ajratish rejimining buzilishi hokimiyatning klerikalizatsiya jarayonlariga olib keladi. Natijada din va siyosatning qorishish darajasi oshib, turli salbiy jarayonlar paydo bo'ladi. Ana shunday oqibatlardan biri alohida konfessiyalar rolining kuchayishi va dinlararo munosabatlar muvozanatining izdan chiqishidir. Bunday sharoitda diniy ozchiliklar noqulay ahvolga tushib qolishadi, bu esa tarixiy nuqtai nazardan ijtimoiy keskinlikka olib keladi.

I.V.Metlikning pozitsiyasi indikativ bo'lib, uning o'ziga xos tadqiqot yo'nalishi maktablarda dinni o'qitish jarayoniga e'tibor qaratadi. Xususan, Rossiya qonunchiligi haqida gapirar ekan, u shunday yozadi: "Konstitutsiyada davlatning din yoki dindan ajratilishi yo'q. Umuman olganda, davlatning dindan ajralishi uning falsafa, san'at yoki fandan ajralishi kabi g'alati narsadir"[7]. Bunday mantiqda aniq qonuniy asos mavjud emas.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Din va siyosatni, diniy tashkilot va davlatni ajratish amalda nimani anglatadi? Ajralish darajasini amaliy idrok etish har doim turli mamlakatlar tajribasining o'zgaruvchanligi bilan kuchayib borayotgan noaniq baholashga sabab bo'lgan va hozir ham sabab bo'lmoqda. Ajralish faqat hokimiyat va konfessiyalarning o'zaro aralashuviga yo'l qo'ymaslik bilan bog'liq bo'lgan mavjud nuqtai nazardan farqli o'laroq, bizning fikrimizcha ushbu tamoyilning keng talqinini taklif qilish mumkin, unga ko'ra ajralishning bir nechta qirralarini alohida ko'rsatish mumkin: siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va mafkuraviy jihatlari. Aslida, bu quyidagi jihatlarga ta'sir qiladi: diniy tashkilotlarni tarixiy-siyosiy jarayonlardagi har qanday ishtirokdan ajratish; diniy tashkilotlarning davlat byudjetidan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirilmasligi, umumiy yurisdiksiyadagi diniy sudlarning mavjud emasligi va ta'limning dunyoviyliigi. Shuningdek, diniy tashkilotlar va davlatning bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik kabi xususiyatni mazkur tamoyilga ham kiritish mumkin.

Ajratish tamoyili – bu davlat dunyoviyligining ikkinchi tarkibiy elementi bo'lib, u ba'zan "diniy birlashmalarning davlatdan ajratilganligi" asosi bilan ifodalanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar bu tamoyilni fundamental va shakllantiruvchi deb hisoblashadi.

Dinning davlatdan ajratish prinsipining birlamchi va ikkilamchi darajalarining tuzilishi quyidagicha:

- Siyosiy jihatdan bo'linuv;
- Iqtisodiy jihatdan bo'linuv;
- Mafkuraviy jihatdan bo'linuv;
- Yuridik jihatdan bo'linuv;
- O'zaro aralashmaslik;

Albatta, sekulyarizmning yuqoridagi tavsifi ushbu tamoyilni qat'iy, hatto qisman ekstremal tushunishga mos keladi. Amalda, siyosat va din o'rtasidagi haqiqiy munosabatlar sanab o'tilgan ba'zi jihatlarda o'zaro yaqinlashishga imkon beruvchi yumshoqroq shakllarga ega bo'lishi mumkin.

Dunyoviy davlatda hokimiyat o'z legitimligini diniy dogmalarga asoslamaydi. Dunyoviy hokimiyat uchun, ayniqsa, demokratik davlatda uning mavjudligining asosi xalqning umumiy saylovlarda ifodalangan iroda erkinligidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7 moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai" [8] ekanligi alohida e'tirof etiladi.

Ikkinchidan, davlatning diniy bo'lmaganligi diniy normalarning huquq manbai emasligini ko'rsatadi. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 12-moddasiga binoan: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas".

Tarixiy tahlilda dunyoviylik mezonlari sifatida xalqaro huquqda vijdon erkinligi va qonun ustuvorligi kontekstida inson huquqlari tamoyillariga mos keladigan belgilarni ko'rib chiqish mumkin.

Albatta, dunyoviylik jamiyatning o'ziga xos muhim tamoyili sifatida ancha kengroqdir, u faqat konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil doirasidagidan ko'ra chuqurroq tushunishni talab qiladi. «Dunyoviylik qonunlarga bog'liq emas, bu ma'lum bir «ong va axloq sivilizatsiyasi» mavjudligini anglatuvchi tarixiy davrning o'ziga xos ruhidir, bu bizni har qanday ajralib turadigan narsaga qaramay birga yashashga

undaydi». Biroq, konseptual tarixiy ifoda aynan “davr ruhi”ni anglatadigan huquqiy me’yorlar bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, vijdon erkinligi, e’tiqod erkinligi, diniy birlashmalar erkinligi, shuningdek, mafkuraviy plyuralizm belgilari aslida dunyoviylikning ajralmas qismlari emas. Shubhasiz, haqiqiy dunyoviy davlatda bu belgilar mavjud bo‘ladi, u avvalo davlatning dunyoviyligi uchun emas, balki uning huquqiy va demokratikligi asoslarga tayanishi uchun ham bo‘lishi shart. Biz vijdon erkinligi belgisini davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni qurishda demokratik davlatning alohida fundamental elementi sifatida ta’kidladik. Mafkuraviy plyuralizm, e’tiqod erkinligi, diniy birlashmalar erkinligi kabi xususiyatlar yuqorida muhokama qilingan vijdon erkinligi tamoyiliga tegishlidir. Bizningcha, davlatning dunyoviylik tamoyilini tahlil qilishda davlatning diniy emasligi, davlatning dindan ajralib turishi kabi belgilarga e’tibor qaratish lozim.

Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik xissini shakllantirish, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida diniy-ziyosat turizmi sohasida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda[9-18]

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

1. Tarixiy ijtimoiy jarayonlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, davlat va din har doim o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan va parallel shaklda rivojlanib kelgan. Din asosan jamiyat aholisining ma’naviy extiyojini qondiruvchi g‘oyaviy paradigma bo‘lsa, davlat va siyosat insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va hokimiyat bilan bog‘liq extiyojlariga xizmat qiluvchi normativ omil bo‘lib xizmat qilgan;

2. Zamonaviy sharoitda din va davlat yaqin munosabati, shuningdek, muayyan ijtimoiy tizimining instituti sifatida o‘ziga xos bo‘lgan barcha asosiy atributlar bilan tavsiflanadi. Uning elementlari quyidagilarni qamrab oladi: mafkuraviy jihatdan (umumiy dogma), diniy faoliyat (kult va kult bo‘lmagan), tashkilot-barlashma sifatida (dindorlarning hayoti, faoliyati, xatti-harakatlarini boshqarish uchun institutsional tizilma), muayyan me’yorlar va xatti-harakatlar tizimining ishlashi (diniy axloq va qonuniy normalar);

Din yoki e’tiqodlar erkinligini qo‘llash sohasini aniqlash uchun tayanch nuqta o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zi belgilash bo‘lishi kerak, garchand shuni ta’kidlash lozimki, davlat idoralari, shubhasiz, mazkur tushunchalarni muayyan vaziyatlarda qo‘llash mumkinligini aniqlash uchun ayrim xolis, rasmiy mezonlardan foydalanish bo‘yicha vakolatlariga egadir.

- Xulosa (Conclusion). Shunday qilib quyidagilarni alohida ta’kidlash mumkin. Zamonaviy jahon hamjamiyatida shakllangan demokratik qadriyatlar tizimini tushunish ikkita asosiy tamoyilni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: vijdon erkinligi va davlatning dunyoviyligi, ular qonun ustuvorligi prinsipi bilan birgalikda siyosat va din o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishning asosiy tushunchalari hisoblanadi. Davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarga huquqiy yondashish vijdon erkinligi va davlatning dunyoviyligini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Davlatning vijdon erkinligi va dunyoviylik tamoyillarini amalga oshirishi demokratik tizimga xos bo‘lgan barchaning qonun oldida tengligi, ijtimoiy tenglik kabi boshqa konstitutsiyaviy tamoyillar bilan to‘la bog‘liqdir. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, demokratik jamiyatda diniy munosabatlar munosabatlar mexanizmining uyg‘un ishlashi uchun konfessiyalarning teng pozitsiyasi tamoyilini qo‘llash zarurati haqida gapirish juda mantiqiy ko‘pinadi. Hokimiyat u yoki bu diniy tashkilotning xizmatlariga alohida e’tibor qaratmasligi kerak, “asosiysi qonunlarga rioya qilish, dindorlar yoki dinsizlar huquqlarini bir hilda hurmat qilishdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1].Основные положения этого принципа изложены в статье: Таранюк Ж.П. Нерелигиозность элементов светского государства // Сибирский международный. -2011. -№12. - С. 181-182.

[2].Юридическая энциклопедия / Отв. ред. Б.Н. Топорнин. - М.: Юристъ, 2001. - С. 972

[3]. Мозговой С.А. Светское как мировоззренчески нейтральное / Материалы ежегодной научной конференции Соркинские чтения. «Актуальные проблемы социологической науки и социологической практики». - М., 2002. 17-18 дек.

[4].Понкин И.В. Современное светское государство: конституционно-правовое исследование. - С. 102.

[5].Булгаков А.Г. «Святая инквизиция» в России до 1917 года. -М.: ООБО «Тавифа», 2006.- С.225.

[6].Нисневич Ю.А. Светское государство: проблемы политико-правовой концептуализации // под ред. А.Малашенко и С. Филатова. - С. 140.

[7].Метлик И.В. Преподавание в школе истории религий и религиозных культур в контек-

сте введения ФГОС общего образования второго поколения // Вестник московского образования». - 2011, №13. - С.290-320.

[8]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://constitution.uz/uz/clause/index#section2>

[9]. Nafasov D.Sh. Edutainment as an effective technology in preparing specialists in tourism industry. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2019. Volume 7. Number 6. – PP.17-21.

[10]. Nafasov D.Sh. Theoretical and pedagogical aspects of forming sociocultural competence of students in tourism. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2020. Vol.8. No.12. – PP.70-73.

[11]. Nafasov D.Sh. Theoretical and pedagogical aspects of developing students socio-cultural competence. Scientific collection "Interconf". // Science and practice: Implementation to modern society. – Manchester, Great Britain, №3(39) December, 2020. 516-521 pages.

[12]. Nafasov D.Sh. Cultural tourism as a factor of development of social and cultural competences of students in tourist activity. // International scientific and practical conference cutting edge – science. – Shawnee, USA, 2020. 140 – 143 pages

[13]. Nafasov D.Sh. Basic directions of development of tourist culture in student youth. // *Замонавий фан, таълим ва тарбиянинг долзарб муаммолари. (Минтақада замонавий фан, таълим ва тарбиянинг долзарб муаммолари) (Электрон илмий тўплам).* – Урганч, 2019. 5-сон. – Б. 236-241.

[14]. Нафасов Д.Ш. Талабалар туристик фаолиятининг дидактик тамойиллари ва тарбиявий-ривожлантирувчи вазифалари. // *Илм сарчашмалари.* – Урганч, 2020. 5 – сон. – Б 136 -139.

[15]. Нафасов Д.Ш. Туризмнинг тарбиявий имкониятларидан фойдаланишнинг тарихий-педагогик жиҳатлари. // *ЎзМУ хабарлари.* – Тошкент, 2021. 1/2/1. – Б 109 -112.

[16]. Nafasov D.Sh. Reforms in the tourism sector in uzbekistan as a driving force of the tourist culture of students. // *Замонавий фан, таълим ва тарбиянинг долзарб муаммолари. (Минтақада замонавий фан, таълим ва тарбиянинг долзарб муаммолари) (Электрон илмий тўплам).* – Урганч, 2018. 3-сон. – Б. 203 – 207.

[17]. Nafasov D.Sh. Turizmning pedagogik asoslari. Ta'lim, fan va innovatsiya. Toshkent, 2023.2 – son.- В.563-565.

[18]. Nafasov D.Sh. Педагогические возможности студенческого туризма в системе образования. O'zMU xabarleri. – Toshkent, 2023. 1/6/1. – В 122 -126.